

2025-yil davomida "O'zgarolizning" AJda monopoliyaga qarshi komplayens tizimi
faoliyatiga oid amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
HISOBOT

T/r	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirilgan ishlar
1	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2025-yilga mo'ljallangan "yo'l xaritasi" ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi.	"O'zgarolizning" AJ va tizim korxonalarida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2025-yilga mo'ljallangan "yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan va Jamiyat Boshqaruv raisi o'rinbosari tomonidan 2024-yil 20-dekabrda tasdiqlangan. (Ilova qilinadi)
2	Tashkilot faoliyatiga oid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplaens bo'linmasi (mas'ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilganligi.	"O'zgarolizning" aksiyadorlik jamiyatida 2022-yil 19-apreldan boshlab monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yo'lga qo'yilgan hamda ushbu sanadan boshlab qabul qilinayotgan barcha turdagi idoraviy hujjatlar majburiy tartibda komplaens timizi bilan kelishiladi. (Ilova qilinadi)
3	Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi.	"O'zgarolizning" AJ va tizim korxonalarida raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan yagona ishonch telefoni ishga tushirilgan (71-207-30-55)
4	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari oldi olinganligi.	"O'zgarolizning" AJ va tizim korxonalarida raqobat cheklanishiga olib keladigan harakatlarning oldini olish maqsadida 2024-2025-yillar mobaynida (PQ-78-son qaror asosida) qishloq xo'jalik texnikalarini xarid qilish bo'yicha tuzilgan oldi-sotdi shartnomalari Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi "Istiqbolli loyihalar va import kontraktlarini ekspertizadan o'tkazish markazi" DUKdan ekspertizadan o'tkazildi. Bunda, barcha sotuvchi tashkilotlarga o'z tovarlarini sotishi uchun teng imkoniyatlar yaratib berildi.
5	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanganligi va ularni tartibga solish bo'yicha choralar ko'rilganligi.	Hisobot yili mobaynida komplaens timizi tomonidan doimiy raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlarini aniqlash borasida doimiy nazorat olib borildi. Yil davomida qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanmadi.

6	Tashkilot faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida darajalarga bo'linganligi.	"O'zagrolizing" AJ faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni "O'zagrolizing" AJ va tizim korxonalarida monopoliyaga qarshi komplains tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to'g'risida "Nizom talablari asosida xavflar tasnifi asosida darajalarga bo'lindi. Unga ko'ra, bo'limlarni quydagicha joylashtirish mumkin: 1) Marketing va sotishni tashkil etish boshqarmasi (yuqori) 2) Xo'jalik ta'minoti bo'limi (yuqori) 3) Diversifikatsiya bo'limi (o'rtacha) 4) Hududiy filiallar va boshqalar (past). Hisobot yili mobaynida "O'zagrolizing" AJ faoliyatiga bevosita aloqador 1 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori qabul qilingan (2025-yil 19-fevraldagi PQ-67 (XDFU) shrifti bilan). Mazkur qaror loyihasi o'rganilgan. Loyihada raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar (holatlar) aniqlanmagan.
7	Tashkilot faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarning loyihalari o'rganilganligi, bunda raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar (holatlar) aniqlangan taqdirda, uni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi.	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, "O'zagrolizing" AJ faoliyatidagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish to'g'risida doimiy takliflar kiritib borilmoqda. Shu jumladan, "O'zagrolizing" AJ va tizim korxonalarida monopoliyaga qarshi komplains tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to'g'risida "Nizom yangilantirib borilmoqda.
8	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tatbiq etilganligi.	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, "O'zagrolizing" AJ faoliyatidagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish to'g'risida doimiy takliflar kiritib borilmoqda. Shu jumladan, "O'zagrolizing" AJ va tizim korxonalarida monopoliyaga qarshi komplains tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to'g'risida "Nizom yangilantirib borilmoqda.
9	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilganligi.	"O'zagrolizing" AJ va tizim korxonalarida faoliyat yurituvchi xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirib borish maqsadida, bir nechta davra subhatlari uyushtirildi. Xususan, joriy yilning 14-mart kuni mutaxassislar ishtirokida "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish hamda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarga rioya etilishini ta'minlash" mavzusida yig'ilish o'tkazildi. Bundan tashqari, Jamiyatning teleqramdagi kanali orqali xodimlarga doimiy malumotlar berib boriladi.
10	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida muntazam ravishda test sinovlari o'tkazilganligi.	"O'zagrolizing" AJ va tizim korxonalarida faoliyat yurituvchi xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida joriy yilning 20-may va 14-oktabr kunlari test sinovlari o'tkazildi. Natijalar ancha yaxshilangan.
11	Tashkilot rahbari, ularning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlari tomonidan monopoliyaga qarshi komplains tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar.	"O'zagrolizing" AJ Boshqaruvi a'zolari ishtirokida 2025-yilning mart oyida monopoliyaga qarshi komplains tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar uyushtirish rejalashtirilmoqda.

“ТАСДИҚЛАЙМАН”

“Ўзғролизнинг” АЖ

Бошқарув раёси ўрибосари

А. Нафратиллов



“Ўзғролизнинг” АЖ тизимида ракобат тўғрисидаги конунчилик ҳужжатлари талабларининг бузилиш хавфларини камайтириш бўйича 2025 йилга мўлжалланган “ЙЎЛ ХАРИТАСИ”

Т/р	Амалга оширилган чора-тадбирлар	Амалга ошириш механизми ва босқичлари	Муддат	Масъул шакрчилар
1.	Ракобат конунчилигига киритилаётган ўзгаришларни ўрганиб бориш, шунингдек, конунчиликка киритилган ўзгаришлардан келиб чиқиб, идоравий ҳужжатларни мувофиқлаштириш юзасидан раҳбариятга тақлифлар киритиш	Тизимли равишда ракобат конунчилиги ҳужжатларига киритилаётган ўзгаришларни ўрганиб бориш. Жамиятда ракобат тўғрисидаги конунчилик ҳужжатлари талаблари бузилиши мумкин бўлган соҳаларни таҳлил қилиш.	Доимий	Монополияга қарши комплаенс тизими бўйича ваколатли шахс (Ш.Хасанов)
2.	Жамият ходимлари орасида “Монополияга қарши конунчилик ва унга амал қилиш” мавзусида семинарлар ва мулоқотлар ўтказиш	Жамият ходимлари орасида ракобат конунчилиги ва унинг бузилиш эҳтимоллари ҳамда унга киритилаётган ўзгаришлар, янгилликлар тўғрисида семинар-тренинг машғулотларини ўтказиш ва ўтказилган тадбирларни ОАВлари ҳамда ижтимоий тармоқлар орқали доимий ёритиб бориш. Фаолият давомида ҳодимларга мунтазам равишда ракобат тўғрисидаги конунчилик	Бир йилда камида 1 марта	Монополияга қарши комплаенс тизими бўйича ваколатли шахс (Ш.Хасанов)
			Доимий	

Т/р	Амалда оширилган чора-тадбирлар	Амалга ошириш механизми ва босқичлари	Муддат	Масъул ижрочилар
3.	Рақобат тўғрисидаги қонунийлик ҳужжатлари талабларининг бузилиш ҳудудларининг аниқлаш ва баҳолаш	<p>Охириги 3 йил давомида монополияга қарши орган томонидан ўтказилган текширишлар, аниқланган қондабузарликлар, берилган тақдирномаларни ўрганиш.</p> <p>Жамият ўз устун мавқеини суистеъмол қилиши ва (ёки) рақобатни чеклаши мумкин бўлган ҳолатларни ўрганиш.</p> <p>Ўтказилган ўрганишлар ва таҳлиллар натижасида қонунийлик бузилиши мумкин бўлган соҳаларни хавфлар таснифи асосида тақсимлаш ҳамда бу юзасидан монополияга қарши органга ахборот киритиш.</p>	<p>Ҳар йили декабрь ойига қалар</p> <p>Ҳар чоракда</p> <p>Ҳар чоракда</p>	<p>Монополияга қарши комиссия тизими бўйича рақобатни шахс (Ш.Хасанов)</p>
4.	Рақобат тўғрисидаги қонунийлик ҳужжатлари талабларининг бузилиш хавфларини аниқлаш ва уларнинг олдвини олиш	<p>Фаолиятга тегишли материалларни таҳлил қилиш (шу жумладан, рақобатни ва (ёки) истеъмолчиларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини чеклайдиган нормаларни аниқлашга қаратилган ички ҳужжатларни ҳақловдан ўтказиш), аниқланган қамчиликларни бартараф этишга йўналтирилган чораларни ишлаб чиқиш.</p> <p>Жамият томонидан чиқариладиган ҳужжатлар (қарор, фармойиш, буйруқ, йиғилиш баёнлари ва бошқалар) лойиҳаларини донмий ўрганиб бориш. Бунда рақобат тўғрисидаги қонунийлик ҳужжатлари талабларининг бузилишини келтириб чиқариши мумкин бўлган нормалар аниқланган тақдирда, бу ҳақда рақобатни хабардор қилиш.</p> <p>Рақобат чекловларини келтириб чиқариши мумкин бўлган омилларни аниқлаш ва уларни бартараф этиш бўйича тақлифлар ишлаб чиқиш.</p>	<p>Донмий</p>	<p>Монополияга қарши комиссия тизими бўйича рақобатни шахс (Ш.Хасанов)</p>

Т/р	Амалга ошириладиган чора-тадбирлар	Амалга ошириш механизми ва bosқичлар	Мулат	Маъсул шахслар
		<p>Жамият томонидан танлов (тендер) ва биржа савдолари ўтказилишида рақобат туғрилидаги қонун ҳужжатларига риоя этилиши устидан белгиланган тартибда назоратчи амалга ошириши.</p> <p>Жамият (таркибий бўлиналари) ва бошқа юридик шахслар ўртасида тузиладиган шартномаларни ўрганиб бориши. Бунда:</p> <ul style="list-style-type: none"> - айрим хўжалик юритувчи субъектларга уларни товар ёки молни бозорида фаолият кўрсатаётган бошқа хўжалик юритувчи субъектларга нисбатан афзал ҳолатга кўялган имтиёзлар, преференциялар ва енгилликларни асоссиз равишда бериш ҳолатларининг; - айрим хўжалик юритувчи субъектларининг фаолияти учун бошқа камситувчи ёки имтиёзли шартлар (шароитлар) белгилаш ҳолатларининг; - тил бириктириши ва қарғел келишувлар содир этилишининг олдини олиш. <p>Монопол Жамият томонидан соғилдиган, улар бўйича ушбу субъектнинг устул марксен эъгироф этилган товарларга (ишларга, хизматларга) монопол юкори ва монопол паст нархлар ўрнатилишига олиб келадиган ёки олиб келиши мумкин бўлган ҳаракатларни ўрганиши.</p> <p>Иктисодий концентрацияга онд тузиладиган битимларни назорат қилиш. Бунда:</p> <ul style="list-style-type: none"> - хўжалик юритувчи субъектларни кўшиб юбориши ва кўшиб олишига доир битимлар тузилишида; - хўжалик юритувчи субъектнинг устав фондидаги (устав капиталдаги) акцияларни (хўжалиқларини) олишига доир битимлар тузилишида 		

Т/р	Амалга ошириладиган чора-тадбирлар	Амалга ошириш механизми ва босқичлари	Муддат	Масъул шакрорчилар
		<p>Монополияга қарши органнинг олдидан розилиши олинганини назорат қилиб бориш.</p> <p>Давлат иштирокидаги хўжалик юритувчи субъектлари, шунингдек, уларнинг аффилиланган шахслари ёки хўжалик фаолиятини амалга ошириш ваколатлари берилган давлат муассасаларини ташкил этишда (кайта ташкил этишда) монополияга қарши органнинг олдидан розилиши олинганини назорат қилиб бориш.</p> <p>Исофсиз рақобат ҳолатларига йўл қўймашлик.</p> <p>Бунда хўжалик юритувчи субъектнинг ёки шахслар гуруҳининг иктисодий фаолиятини амалга оширишда афзалликларга эга бўлишга қарагилган, қонунчиликка иш муомаласи одатларига зид бўлган ҳамда бошқа хўжалик юритувчи субъектларга (рақобатчиларга) зарар етказадиган ёки зарар етказиши мумкин бўлган ёхул уларнинг ишчанлик обрўсига нўтур етказадиган ёки нўтур етказиши мумкин бўлган ҳаракатларига йўл қўймашлик чораларини кўриш.</p> <p>Рақобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларини бузиш хавфи юқори бўлган Жамият таркибий бўлиналари рўйхатини шакллантириш ҳамда донимий назорат қилиб бориш.</p>	<p>Ҳар йили 15 декабрга қалар</p>	<p>Монополияга қарши комплаене тизими бўйича ваколатли шахс (Ш.Ҳасанов)</p>
5.	Монополияга қарши комплаене тизими фаолияти юзасидан йиллик ҳисоботни тайёрлаш	<p>1. Монополияга қарши комплаене бўйича ҳисобот тайёрлаш; рақобат тўғрисидаги қонун бузилиши хавфини баҳолаш натижалари тўғрисида; рақобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари бузилиши хавфини қамайтириш юзасидан қўрилган чора-тадбирларнинг амалга оширилиши тўғрисида;</p>	<p>Ҳар йили 15 декабрга қалар</p>	<p>Монополияга қарши комплаене тизими бўйича ваколатли шахс (Ш.Ҳасанов)</p>

Т/р	Амалга оширилаётган чора-тадбирлар	Амалга ошириш механизми ва босқичлари	Муддат	Масъул шхронлар
		<p>монополияга қарши компаниянинг асосий кўрсаткичларига эришиш тўғрисида; монополияга қарши компанияне фаолиятининг самаралорлигини баҳолаш учун асосий кўрсаткичларини ҳисоблаш тўғрисида. 2. Монополияга қарши компанияне тўғрисидаги ҳисоботни расмий веб-сайтга жойлаштириш ва монополияга қарши органга юбориш.</p>	<p>Ҳар йил 25 декабрга қадар</p>	
6.	<p>Монополияга қарши курашиш органи билан доний ахборот алмашинувини амалга ошириш</p>	<p>Монополияга қарши курашиш органи билан электрон почта, телеграм ва расмий веб-сайт орқали янги лойиҳа ва таклифлар бўйича ахборот алмашиш.</p>	<p>Доний</p>	<p>Монополияга қарши компанияне тизими бўйича ваколатли шахс (Ш.Хасанов)</p>
7.	<p>Кейинги йилга мўлжалланган рақобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларининг бузилиш хавфларини камайтириш бўйича "Йўл харита" сени харита" сени тасдиқлаш</p>	<p>Бир йилга мўлжалланган рақобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларининг бузилиш хавфларини камайтириш бўйича "Йўл харита" сени монополияга қарши орган билан келишган ҳолда ишлаб чиқиб тасдиқлаш.</p>	<p>Ҳар йил 25 декабрга қадар</p>	<p>Монополияга қарши компанияне тизими бўйича ваколатли шахс (Ш.Хасанов)</p>





2022-yil "19" aprel

45/Ch sonli

BUYRUQ

Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy qilish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-iyuldagi PF-6019-sonli Farmoni va Vazirlar Mahkamasining "Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 2-martdagi 114-sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-iyuldagi PF-6019-sonli Farmoni va Vazirlar Mahkamasining "Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 2-martdagi 114-sonli Qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Jamiyat ijroiya apparati Yuridik boshqarmasi Bosh yuriskonsulti Sh.Xasanov "O'zagrolizing" aksiyadorlik jamiyatida monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha mas'ul etib belgilansin.

3. "O'zagrolizing" aksiyadorlik jamiyatida monopoliyaga qarshi komplayens tizimi to'g'risida"gi Nizom 1-ilovaga muvofiq, "O'zagrolizing" aksiyadorlik jamiyati tizimida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavfini kamaytirish bo'yicha 2022-yilga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Buyruq ijrosini nazorat qilish Boshqaruv raisining o'rinbosari A.Nasirdinov zimmasiga yuklansin.

Boshqaruv raisi

N. Otajonov

“Ўзагролизинг” АЖ
Бошқарув раисининг
2022 йил “19” апрел даги
45/16 -сон буйруғига
асосан тасдиқланди

**“Ўзагролизинг” АЖ ва тизим корхоналарида монополияга қарши
комплаенс тизимини жорий этиш ва унинг ишлаш тартиби тўғрисида
НИЗОМ**

Умумий қоидалар

1. Мазкур Низом “Ўзагролизинг” АЖ ва тизим корхоналари (кейинги ўринларда - Жамият)да монополияга қарши комплаенс тизимини жорий этиш, унинг фаолият юритиш ва мониторинг қилиш тартибини белгилайди.

2. Мазкур Низомда қуйидаги асосий тушунчалардан фойдаланилади:

монополияга қарши курашиш органи — Ўзбекистон Республикаси Монополияга қарши курашиш қўмитаси ва унинг ҳудудий бошқармалари;

монополияга қарши комплаенс — фаолиятнинг ракобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатларига мувофиқлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликлар хавфини аниқлаш ва уларнинг олдини олишга қаратилган ички ташкилий чора-тадбирлар ва таомиллар тизими;

монополияга қарши комплаенс тўғрисидаги ҳисобот — Жамиятда ракобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатларига амал қилинишини ташкил этиш ҳақидаги ахборотни ўз ичига оладиган ҳужжат;

ваколатли шахс — монополияга қарши комплаенс назоратини амалга оширувчи шахс лавозими;

савдолар — товар ва хизматларни харид қилиш ва сотиш билан боғлиқ бўлган таомиллар, шу жумладан, электрон савдо таомиллари.

3. Қуйидагилар монополияга қарши комплаенс тизимининг асосий вазифалари ҳисобланади:

ракобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларининг эҳтимолий бузилиш хавфларини аниқлаш ва баҳолаш ҳамда уни бошқариш;

Жамиятда ракобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларига мувофиқлигини таъминлаш ва мониторинг қилиш;

Жамият фаолиятида ракобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талаблари бузилишининг ҳамда раҳбарлар томонидан ўз вазифаларини бажариш жараёнида ракобатга зид хатти-ҳаракатлар амалга оширилишининг олдини олиш;

Жамиятда монополияга қарши комплаенс тизимини ишлаш самарадорлигини баҳолаш ва таъминлаш;

Жамиятда фаолият юритувчи ходимларда ракобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талаблари бузилишининг олдини олиш ва мунтазам равишда ушбу йўналиш бўйича уларнинг малакасини ошириш юзасидан ўқитиш йўли билан ракобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатларига доир фикрларини ривожлантириш.

Монополияга қарши компаенс тизимини ташкил этиш

4. Ваколатли шахс қуйидагиларни амалга оширади:

ракобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талаблари бузилишини мониторинг қилиш;

фаолиятга тегишли материалларни таҳлил қилиш (шу жумладан, ракобатни ва (ёки) истеъмолчиларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини чеклайдиган нормаларни аниқлашга қаратилган ички ҳужжатларни хатловдан ўтказиш), аниқланган камчиликларни бартараф этишга йўналтирилган чораларни ишлаб чиқиш;

ракобат чекловларини келтириб чиқариши мумкин бўлган омилларни аниқлаш ва уларни бартараф этиш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш;

монополияга қарши компаенс тизимининг фаолият юритиши билан боғлиқ масалалар бўйича бошқа тузилмавий бўлинмалар билан ўзаро алоқаларни мувофиқлаштириш;

ракобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талаблари бузилиш билан боғлиқ ички ўрганиш ишларини ташкил этиш;

монополияга қарши курашиш органи билан ракобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талаблари бузилиши бўйича ўзаро ахборот алмашиш;

ракобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларининг бузилиш хавфларини камайтириш мақсадида бир йилга мўлжалланган “Йўл харитаси” ни ишлаб чиқиш ва амалга оширилишини таъминлаш;

ракобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари ўзгаришларни мониторинг қилиш, шунингдек, идоравий ҳужжатларга тегишли ўзгартиришлар киритиш юзасидан таклифлар киритиш;

ракобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларининг бузилиш хавфларини аниқлаш, хавфлар билан боғлиқ ҳолатлар ҳисобини юритиш ва юзага келиш эҳтимолини белгилаш;

Жамият фаолиятида ракобат чекловларини келтириб чиқариши мумкин бўлган манфаатлар тўқнашувини аниқлаш, уларни бартараф этиш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш;

Жамият ходимларига ракобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларига амал қилиш билан боғлиқ масалалар бўйича маслаҳатлар бериш;

монополияга қарши компаенс масалалари бўйича мунтазам равишда тренинглар ўтказиш;

Жамият томонидан қабул қилинадиган ҳужжатларнинг лойиҳаларини ўрганиш ва ракобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларининг бузилишини келтириб чиқариши мумкин бўлган нормалар аниқланган тақдирда, бу ҳақда раҳбарни хабардор қилиш;

Жамият барча ҳудудий филиаллари ва тизим корхоналари монополияга қарши компаенс тизимининг жорий этилиши ва самарали фаолият кўрсатишини ташкил этиш;

ҳар йили биринчи февралга қадар монополияга қарши компаенс ҳақидаги ҳисоботни раҳбариятга тасдиқлаш учун тақдим этиш.

Ваколатли шахс бевосита раҳбарга бўйсунди ва ҳисобдор бўлади.

Рақобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларининг бузилишини аниқлаш

5. Жамиятда рақобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларининг бузилиш хавфларини аниқлаш мақсадида ваколатли шахс томонидан қуйидагилар амалга оширилади:

рақобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларининг бузилишига ёки бозорда рақобатни чеклашга олиб келадиган нормалар ва коидаларни аниқлаш мақсадида норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ўрганиш;

жорий этиладиган янги чекловлар, рухсат бериш тартиб-таомилларининг янги турлари, лицензияларни, шунингдек, рухсат бериш хусусиятига эга ҳужжатларни ёки лицензияларни олиш учун қўшимча талаблар ёки шартларни ҳамда техник тартибга солиш талабларининг жорий этилишини ўрганиш;

тендер ва биржа савдоларига қўйиладиган монополияга қарши талабларга амал қилинишини таҳлил қилиш;

давлат харидларининг рақобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларига мувофиқлигини ўрганиш;

аниқланган рақобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларини бузиш ҳолатларини таҳлил қилиш;

рақобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатларини қўллаш амалиётини мониторинг ва таҳлил қилиш;

рақобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларининг бузилиш хавфларини камайтириш бўйича ишлаб чиқилган ва амалга ошириладиган чора-тадбирлар самарадорлигини мунтазам равишда баҳолаш;

вужудга келиш эҳтимоли бўлган монополияга қарши хавфларни таҳлил қилиш ва уларнинг рўйхатини комплаенс-хавфлар харитаси кўринишида тузиш;

рақобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларининг бузилиш хавфларини камайтириш бўйича ишлаб чиқилган ва амалга ошириладиган тадбирларнинг самарадорлигини мунтазам равишда баҳолаш.

Жамият фаолияти хусусиятидан келиб чиққан ҳамда раҳбарият билан келишилган ҳолда монополияга қарши комплаенс тизимининг самарали ишлашига қаратилган бошқа чора-тадбирлар ҳам амалга ошириш.

6. Рақобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларининг бузилиш бўйича аниқланадиган хавфлар ваколатли шахс томонидан мазкур низомга иловага мувофиқ даражалар бўйича тақсимланади.

7. Рақобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларининг бузилиш хавфларини таҳлил қилиш, аниқлаш ва баҳолаш тўғрисидаги ахборот монополияга қарши комплаенс ҳақидаги ҳисоботга киритилади.

Монополияга қарши комплаенс тизимининг ишлаш самарадорлигини баҳолаш

8. Жамиятда монополияга қарши комплаенс тизимининг ишлаш самарадорлигини баҳолаш бўйича асосий кўрсаткичларни ҳисоблаш монополияга қарши курашиш орган томонидан ишлаб чиқилган методика асосан ҳисоблаб борилади.

9. Ваколатли шахс Жамиятда монополияга қарши комплаенс тизимининг эришилган асосий самарадорлик кўрсаткичларини баҳолайди (йилда камида бир марта).

10. Жамият монополияга қарши комплаенс тизимининг ишлаш самарадорлигини баҳолаш бўйича асосий кўрсаткичларга эришилгани тўғрисидаги ахборот монополияга қарши комплаенс ҳақидаги ҳисоботга киритилади.

Монополияга қарши комплаенс ҳақидаги ҳисобот

11. Монополияга қарши комплаенс ҳақидаги ҳисобот қуйидагиларни ўз ичига қамраб олади:

ракобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларининг бузилиш ҳавфлари бўйича ўтказилган баҳолаш ишларининг натижалари ҳамда камайтириш бўйича чора-тадбирларнинг бажарилиши;

монополияга қарши комплаенс тизимининг асосий самарадорлик кўрсаткичларига эришилгани ҳақидаги ахборот.

12. Жамият томонидан тасдиқланган монополияга қарши комплаенс бўйича ҳисобот Жамиятнинг расмий веб-сайтида жойлаштирилади ва уч иш куни ичида монополияга қарши курашиш органига юборилади.



Рақобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларининг
бузилиш даражаси бўйича

НАМУНАВИЙ ХАВФЛАР ТАСНИФИ*

Эҳтимолликни баҳолаш (юз бериш эҳтимоллари)	Оқибатлар даражаси		
	Паст	Ўртача	Юқори
Юқори эҳтимоллик			
Ўртача эҳтимоллик			
Паст эҳтимоллик			

* Рақобат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларининг бузилиш даражаси бўйича хавфлар таснифи тавсиявий аҳамиятга эга бўлиб, бозор фаолиятининг ўзига хос хусусиятига қараб ўзгартирилиши мумкин.